



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**

GLOBAL TA’LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

**mavzusidagi VIII an’anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani
MATERIALLARI**

**Toshkent
2024-yil, 26-aprel**

UO‘K:378.147(575.1)

“Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari [Матн] / — Toshkent: “Anorbooks”, 2023. — 456 b.

Mazkur to’plamdan tilshunos va adabiyotshunos olimlar, metodistlar, akademik litsey hamda umumta’lim maktabi o’qituvchilari, tadqiqotchilar, magistrant, talabalarining maqola va tezislari o’rin olgan. To’plamda global ta’lim va milliy metodika, ona tili va o’zbek (davlat tili) tilini o’qitish, adabiyot fanini o’qitishda zamonaviy yondashuvlar hamda til va adabiyot ta’limida innovatsion g’oyalar kabi mavzular o’z aksini topgan.

To’plam ona tili, o’zbek (davlat) tili va adabiyoti ta’limi, uni o’qitish metodikasi sohasidagi mutaxassislar, tadqiqotchilar, magistrant hamda talabalar uchun mo’ljallangan.

To’plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

M.Abdullayeva, I.Ishonxonova, S.Inomjonova, F.Qulsaxatov, M.Elboyeva, M.Qosimova

Mas’ul muharrir

Pedagogika fanlari doktori, professor R.Niyozmetova

Taqrizchilar:

Pedagogika fanlari doktori, dotsent K.Mavlonova

Ped fanlari bo’yicha falsafa doktori, (PhD) dotsent S.Kambarova

Ushbu to’plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti “O’zbek adabiyoti ta’limi” kafedrasidan “Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusida 2024-yil 26-aprelda o’tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

*To’plamdan o’rin olgan maqolalarning ilmiy saviyasiga
mualliflarning o’zlari mas’uldirlar.*

UO‘K:378.147(575.1)

4. Акрамова Л.Ю. Обучение письменной речи на базе научного текста по специальности в группах одарённых студентов мед.вузов Узбекистана. Автореферат ... канд.пед.наук. – Т., 2001. – 22 с.

5. Аракелян Н.К. Обучение деловому стилю современного русского языка в национальных группах армянских вузов: Автореферат дисс. ... канд.пед.наук. – Ереван, 1977. - 19 с.

FARDLAR TAHLILI ORQALI O'QUVCHILAR TANQIDIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Intizor Jumaniyazova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Masofaviy ta'lim fakulteti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarning tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda, 7-sinf yangi adabiyot darsligida berilgan fardlar tahlilida yangicha yondashuvlar haqida mulohazalar berilgan va o'quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga oid topshiriqlar ko'rsatilgan. Faol interaktiv darslarni tashkil etish va uning samarali natijalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Falsafiy-axloqiy, taammul aylamoq, badiiy-tadqiqiy, badiiy-konstruktiv, badiiy-tashkiliy, badiiy kommunikatsiya.

Abstrakt: This article provides comments on new approaches to the development of students' critical thinking and the analysis of characters given in the 7th grade new literature textbook. Tasks related to the development of students' critical thinking are shown. Organization of active interactive lessons and its effective results are analyzed.

Key words: Philosophical-ethical, tolerant, artistic-research, artistic-constructive, artistic-organizational, artistic communication

Hozirgi paytda ta'lim sohasida tub o'zgarishlar ro'y berdi. Barkamol insonni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Har tomonlama yetuk, mukammal va komil insonni tarbiyalash, qalbida yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish uchun, avvalo, uzluksiz ta'lim tizimida tub islohatlarni amalga oshirish zarur edi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari hamda boshqa metodik vositalarni yanada takomillashtirishni taqozo etib, ta'limni sifat jihatdan yangilashni talab qilmoqda. Ta'lim haqidagi, yoshlar siyosati borasidagi qonunlar maktab va maktabgacha muassasalar bo'yicha hukumat ko'rsatmalari, qarorlar va ularni amalga oshirish borasida muayyan muvaffaqiyatlarni ham qo'lga kiritib kelmoqda. Bu esa umumta'lim, ijod va ixtisoslashgan maktablarda ta'lim berish jarayonini yanada mukammal tarzda, turli innovatsion yondashuvlar asosida olib borishni talab qiladi. Bugungi kun talabidan kelib chiqib, zamonaviy adabiyot o'qituvchisi adabiyot darslarida o'quvchilar qalbiga yo'l topishi, ruhiy va ma'naviy olamini boyitishi hamda ularda badiiy adabiyotga muhabbat tuyg'usini shakllantirmog'i lozim. Zero, yosh avlodda mustaqil mutolaa jarayonida badiiy-estetik did, intellektual tafakkur rivojlanadi. Adabiyot o'quvchi shaxsiyatiga ruhiy poklik, ma'naviy yuksaklik sifatlarini tarbiyalashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Mustaqillik yillarida adabiyot bo'yicha DTS hamda o'quv dasturlari ishlab chiqilib, bir necha bor takomillashtirildi, darsliklarning bir necha avlodi chop etildi. Badiiy adabiyotga yuksak baho berilar ekan, adabiy ta'limni yanada jonlantirish, yosh avlod qalbida so'z san'atiga mehr-muhabbat tuyg'ularini kamol toptirish, nafosat va go'zallikka shaydolikni uyg'otish g'oyatda muhimdir. Uzluksiz ta'lim tizimi dastur va darsliklarida o'zbek mumtoz adabiyotiga alohida e'tibor berilgan.

Umumiy o'rta ta'lim va ijod maktablarining 7-sinfi uchun 2022-yilda yangi nashr etilgan adabiyot darsligining 3-fasli "O'tmishdan sadolar" rukniga kiritilgan mumtoz namunalar bilan tanishish moyinida mumtoz adabiyot namunalariga 7 soat ajratilganiga guvoh bo'ldik. Darslikda Alisher Navoiy qit'a va fardlari, Jahon otin Uvaysiy g'azal va chistonlaridan namunalar kiritilgan.

Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Navoiy qit’alari tahliliga bir soat berilishi mantiqqa zid. Alisher Navoiydek buyuk mutafakkirning hayot yo’li va to’qqizta qit’aning tahliliga nafaqat bir soat, ikki soat ham kamlik qiladi. Chunki buyuk shoir yaratgan har bir qit’ani kichik bir asar desak, mubolag’a bo’lmaydi. Bu qit’alarda aks etgan falsafiy, irfoniy, hayotiy mushohadalar yuksak axloqli, hur fikrli o’quvchilarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Darslikda quyidagi nazariy ma’lumotlar o’zlashtirilish ko’zda tutilgan: g’azal, qit’a, fard va chiston to’g’risida tushunchaga ega bo’lish.

Bu faslni o’rganishda e’tibor qaratish lozim bo’lgan jihatlar:

- Alisher Navoiy qit’alari va fardlaridagi g’oyalarni tahlil qilish;
- fard va qit’a haqidagi tushunchaga ega bo’lish;
- mumtoz adabiyotdagi kichik janrlarni solishtirish. [Mirzayeva, 2022:124]

Mazkur faslda Alisher Navoiyning hayot yo’li haqida ixcham ma’lumot berilgan. Adabiyot o’qituvchisi o’zining bilim va mahoratidan kelib chiqib, Navoiy shaxsiyati, hayot yo’li haqidagi qiziqarli ma’lumotlarni o’quvchilarga taqdim etishi mumkin.

Darslikda qit’a janri haqida ma’lumot berilganki, o’quvchilar mazkur janr haqida to’liq ma’lumotga ega bo’lishlari lozim. Mumtoz adabiyotda barakali sanalgan qit’a janri adabiyot darslarida faol o’rganiladigan janr bo’lib, keyingi o’n-o’n besh yil ichida amaliyotda qo’llangan dasturlarga ko’ra 6-,8-,9- va 10-sinf darsliklariga kiritilgan. Bu bejiz emas, albatta. Mumtoz she’riyatimizda shoirlar boshqa janrlarga nisbatan qit’ada salmoqli ijod qilishgan. Navoiy ijodida qit’a o’n olti janr ichida uchinchi o’rinda turadi. Dars o’tish jarayonida qit’alar tahlilida kerak bo’ladigan ilmiy-nazariy qarashlardan xabardorlik juda muhimdir.

Navoiy esa “Xazoyin ul-maoniy”dagi qit’alarning manbasi, yozilish tarixi, sababi, mavzusini yoritib beruvchi jummalarga teng izohli sarlavha qo’yg’an. Shoirning shunday qit’alari 10-sinf (2017) darsliklariga kiritilgan edi.

Alisher Navoiyning “Haq taolo xoni in’omi-yu karami omi borida o’zgadin nima tilagonning tamayi xomi-yu zoti nafarjomi”, “Saxo-vu buxl bobida nukta surmak va arolarida ikki vosita kelturmak”, “Ul bobdakim jahon ahli bevafo dur va alardin vafo ko’z tutmoq xatodur”, “Shohni ajdahoga nisbat qilib tururkim, ganj umidi ham andin boru ranj biymi(xavfi, vahimasi) ham” kabi sarlavhali qit’alari yuksak badiiy tahlili bilan berilgan. Bu sarlavhalar shoir qit’alarini tushunishga, adabiy ta’limda ularni tarbiyalanuvchilarga tushuntirishda o’ziga xos kalit vazifasini bajaradi.

Qit’a janrining mavzu doirasi keng, xilma-xil bo’ladi. Asosan diniy-tasavvufiy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, odob-axloq haqidagi mavzular qalamga olinadi. Boshqa mumtoz she’riyat janrlarida ishq yetakchi mavzu bo’lsa, qit’alarda muhabbat kechinmalari kamdan-kam yoritiladi. Masalan, Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”sidagi 210 qit’adan birortasi ham ishqiy mavzuda emasligi aniqlangan. [To’xliyev, 2017: 95].

Oldingi darsliklarda mumtoz matnlar berilib, ularning tabdili yoki tahlili o’quvchilarga tayyor qilib berilardi. Ushbu yangi darslikda esa birmuncha yangiliklar bor, ya’ni mumtoz matnning, qit’alarning izohi, tahlili berilmagan. Bu esa o’quvchilar tafakkuri va tasavvurini rivojlantirishda ahamiyat kasb etadi. 7-sinf adabiyot darsligida qit’alardan so’ng Navoiy fardlari berilgan. Darslikda berilgan ma’lumotga qo’shimcha qilgan holda, fardda dolzarb, salmoqli falsafiy-axloqiy g’oyalar ifodalanadi. Fardning qisqa va ixchamligi shoirdan “Ming ma’nini bir nuqta bila muxtasar etish”ni (Mashrab) taqozo etadi. Fard janriga xos erkinlik shoirning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi, ijodiy erkinligini ta’minlaydi.

Fard haqida ma’lumot berilgandan so’ng, fardlar tahlil qilinadi. Mazkur yangi darslikda oldingi darsliklardan farqli o’laroq namuna uchun mulohazali savollar berilgan.

1. Fardni o’qing. Unda qanday g’oya ifodalanmoqda?
2. Fardning ikkinchi misrasi (qatori) nimaga xizmat qilmoqda?
Yuqar yamonlig’angakim, kirar yamon el aro,
Ko’mir aro ilik urg’on qilur ilgini qaro.
3. Berilgan maqollardan qaysi biri fardning g’oyasini aks ettiradi?

A) Yamonga aytsang siringni, mingta qilar biringni.

B) Zolim oshi osh bo’lmas, yomon yig’ilib bosh bo’lmas.

S) Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar, yomonga yaqin yursang – balosi.

Mana shunday topshiriqlar bilan boshlangan mavzular o’quvchilarni mulohaza qilishga undaydi.

Darslikda fardlarni o'rganishda maqollardan foydalanilgan.

Juft-juft bo'lib ishleng. Navoiy fardlaridan namunalarni o'qing va tahlil qiling. Har bir fardning g'oyasini bitta gap bilan ifodalang yoki unga mos maqol toping.

E'tibor berilsa, tushunarsiz so'zlar lug'atlari ham oldingi darsliklarda har bir sarlavhaning oxirida berilar edi. Yangi darsliklarda bu holatga o'zgacha yondashilgani holda sarlavhalarining yon boshida lug'atlar berilgan.

Kishi aybing desa, dam urmag'ilkim, ul erur ko'zgu,
Chu ko'zgu tiyra bo'ldi, o'zga aybing zohir aylarmu?

tiyra – xira
zohir – ochiq, ayon

“Shoir she'rida tasvirlangan goya, tuyg'u, obraz, ruhiy manzaralarni o'z nomi bilan aytishga eri-shish, – deb yozadi adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul, – ular bag'ridagi yashirin ma'no va badiiy sirlarni tahlil tilida ifodalash – haqiqatning bosh mezoni mana shudir”. [<https://youtu.be/48uzEKD-MPho>] Tahlilni quyidagi qit'a misolida ko'ramiz. O'quvchilar tushunarsiz so'zlar lug'ati bilan tanish-gach, fardni oson usulda tahlil qilish uchun fard mazmuniga yaqin ibora va maqollardan foydalanamiz. O'quvchilarga murojaat qilinadi. – Hurmatli o'quvchilar inson o'zining aybini ko'ra oladimi, ya'ni o'zi-ning yomon xislatlarini anglay oladimi, siz-chi? Bu muammoli savoldan keyin o'quvchilar o'z fikrlarini ayta boshlaydilar. Durdona: Aybni yuziga aytish to'g'ri, deb husoblayman, ammo bu hammaga ham yoqavermasligi ham mumkin. Buni tan olish kerak, xalqimizda aybni yuziga aytish – suvning ko'zadan ko'chirilishi, degan hikmatli so'zlarini eslash mumkin. Malika: Ya'ni ayrim vaqtlarda bu hodisa yomon oqibatlarga ham olib keladi. Sunbul: Bu hodisaning bir tomoni, aybni yuziga aytish – sabr qilishga, muammolarga yaxshi yechim topishga ham turtki bo'ladi. Doniyor: Aybni yuziga aytish mas'uliyatli in-sonning asosiy xususiyati, insonga o'z xatolarini anglatish – unga qarshi turishning, o'zini tarbiyalash va rivojlantirishning bir ko'rinishi sifatida qarashdir. O'quvchilar birin-ketin fikr bildira boshlaydilar. Bu fikrlar jamlanib xulosa qilinib, fardning mazmuni ochib beriladi. Ya'ni, kishi sening aybingni yuzingga aytsa, xafa bo'lmagil, chunki sening nuqsonlaringning aksi ko'zguda namoyon bo'lganidek, aybingni aytgan odam esa senga xuddi ko'zgu kabidir. Aybingni aytgan kishini yoqtirmaslik hammaga xos. Lekin bu bilan o'ziga zarar qilayotganini hazrati Navoiyning ushbu fardi kishiga juda tushunarli va ta'sirli qilib yetkazib beradi. Chindan ham dam urilsa, ya'ni nafas tegsa, ko'zgu xiralashadi. Shu kabi to'g'ri gapga chidamay jirillash ham keyingi safar aybingning aytilmasligiga olib keladi. Ya'ni ma'naviy ko'z-guni xiralashtiradi. Fardda payg'ambarimizning: “Musulmon musulmonga ko'zgu”, – degan hadislar shoir tomonidan o'ziga xos tarzda badiiy shaklga solingan.

Darslikda bu fardga qarama-qarshi ma'noni ifodalovchi yana bir fard keltirilgan.


Kishi aybin yuziga qilma izhor,
Taammul ayla o'z aybingg'a zinhor.

taammul aylamoq – fikr yuritmoq,
izhor – aytmoq, zinhor – hech qachon,

Kishining aybini yuziga aytma, yaxshilab o'ylab ko'r, fikr yurit o'z aybingni, yoki, kishilarning aybini yuzlariga aytishingdan oldin o'zingning aybingni hech shubhasiz yaxshilab o'ylab ko'r. Mazkur qit'a mazmuni yuqoridagi qit'a mazmuni bilan qarama-qarshi mazmunda. O'quvchilarga qit'a haqida muammoli savol beriladi. Mazkur qit'a haqida yuqorida keltirilgan fikrlarni inkor qilish mumkinmi? Kishining aybini yuziga aytish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinmi? O'quvchilar o'z fikrini er-kin bildira oladilar. Shohjahon: Kishining aybini yuziga aytishning ijobiy tomonlarini ko'rib o'tdik. Bu hodisaning ikkinchi tomonini ham bilishimiz zarur. Dilnoza: Ayrim insonlarga aybini hammaning oldida aytish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. U o'zidagi ishonchni yo oilada, yo ish joyida yo'qo-tishi mumkin. Fardni hozirgi zamon bilan integrativ yondashuv asosida tushuntiramiz. Kishi aybini aytishning salbiy oqibatlari internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali to'g'ri yoki noto'g'ri ma'lumotlarning tarqalishi ham ulkan psixologik zarbalarga olib kelishi mumkin. Sarvinoz: Kishi aybini aytish hamma vaqt ham to'g'ri kelmaydi. Bu narsa kishiga juda qattiq ta'sir qilishi mumkin. Jamiyatda, oilada, ishda tushkunlikka tushishi mumkin. O'ziga bo'lgan ishonch yo'qolishi mumkin. O'quvchilar o'z fikr va mu-lohazalarini bildirishgach, tarqatma jadval beriladi. Bu jadval orqali ikkita fard qiyoslab tahlil qilinadi.

O‘quvchilar qit’alarni qiyoslab tahlil qiladilar va o‘z fikrlarini bildiradilar. “O‘qituvchilar ma’lum bir o‘quvchi yoki o‘quvchilar guruhida yuzaga kelgan betakror hissiy holat yoki qarashni butun sinfga yoyish, ularning tuyganlari va ilg‘aganlarini butun sinfning mulkiga aylantirish orqali boshqalarda ham shunday faoliyatga rag‘bat uyg‘otish layoqatiga ega bo‘lishlari kerak. O‘qituvchining tashkilotchiligi uning badiiy-kommunikativ vazifalarni nechog‘lik uddalashida namoyon bo‘ladi. Uqituvchining tashkilotchiligi uning badiiy-kommunikativ vazifalarini nechog‘lik uddalashida namoyon bo‘ladi”. [Qodirov, 2019: 140] O‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilar bilan berilgan mumtoz matnlarni to‘g‘ri tahlil qilsa, didaktik tomonlarini to‘g‘ri anglashga yordam bersa, ko‘zlagan natijaga erisha oladi. Darslikda yuqoridagi ikkita farddan tashqari quyidagi to‘rtta fard berilgan. Mazkur fardlarni ham tahlil qilishga harakat qilinadi.

Adabiyot o‘qituvchisi badiiy asarlarni tahlil etish yo‘l-yo‘rig‘ini fanniy asoslarda o‘rganmas ekan va har qanday janrdagi asarni tahlillay olish malakasiga ega bo‘lgan holda o‘quvchilar bilan yuzma-yuz bo‘lmas ekan, adabiy ta’limdan kuzatilgan maqsad amalga oshmaydi. Adabiyot o‘qituvchisi nochorligicha, adabiyot darslari zerikarliligicha, asardan chiqariladigan xulosa “ijtimoiy nasihat”ligicha qolaveradi. Tahlil g‘arib bo‘lganligi uchun adabiyot o‘qitish jarayoni oldiga qo‘yilgan bosh maqsad – barkamol shaxs shakllantirish amalga oshmaydi” [Iyldoshev, 1996:72]. Fardlar tahliliga to‘g‘ri yondashilsa, hayotiy misollar bilan tahlil qilinishi darsda yuqori samara beradi. O‘quvchilar o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi.



*Men – sinig, ko‘nglim – sinig, sabrim uyi xud yerga past,
Bilmagay holim shikastin, ko‘rmagan buncha shikast*

Xalqimiz orasida “Dardi yo‘q bedard, dardning qadrini ne bilur, zimiston chekmagan bulbul qafasning qadrini ne bilur” kabi hikmatli so‘zlarni ko‘p eshitganmiz. Shunday insonlar borki, ularning qalblarida juda katta dard va og‘riq bo‘lsa ham, o‘zidan boshqa bilmaydi. Dardini hech kimga doston qilishmaydi, sabr qilishadi. Olloh began mashaqqat va qiyinchiliklar oldida qanoat qilishadi. Bunday

insonlarning ahvolini shu holatni boshdan kechirgan insongina to'liq anglashi mumkin. Ushbu fard ham hayotning ana shu ko'hna haqiqatidan saboq beradi.

*Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo'q,
Futuvvat barcha qilmoqdur demak yo'q.*

*futuvvat – oliyjanoblik,
saxovat.*

Odam hamisha o'zini bilishga intilib yashaydi. Ko'pchilik o'zidan minnatdor bo'lib, ko'ngli to'lib yurishi ham bor gap. Lekin asli odamlilik, odamiylik nimada degan savolga ulug' shoirning javobi shunday: "Muruvvatli odam borini hech kimdan ayamaydi, birovlariga beradi, o'zi yemaydi, jo'mard, mard, ya'ni futuvvatli odam esa, ko'p savob amallarni qiladi, lekin qilgan ishi haqida hech kimga bir og'iz ham gapirmaydi". Alisher Navoiyning bunday mavzudagi lirik turga mansub asarlariga ko'p duch kelamiz. Ularda saxiy insonlarning yuksak qalb sohibi ekanligi, ezgu fazilatlariga ega ekanligi qayta-qayta ta'kidlangan.

*El ichra, ey hasud, seni qildi haq zalil,
Kim nobaq elga zidsen-u, haq molig'a baxil.*

zalil – xor, tuban, past

zid – qarshi, hasud – hasadgo'y

Mazkur misralarda yuqoridagi fardga ma'no jihatdan zid bo'lgan fikrlarga duch kelamiz. Alisher Navoiy hasadgo'y, baxil insonlarni Olloh taolo xalq orasida qanchalik xor qilishi, el orasida hech qanday qadr-qimmat topmasligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Saxiy, yaxshi insonlar doimo saodatga erishadilar, baxil, yomon odatli insonlar esa hayotlari davomida komillikka erisha olmaydilar. O'quvchilarga ushbu fikrlarni singdirish, ular qalbida ezgu fazilatlarini shakllantirish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Bunda matn bilan ishlash, matn tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. "Badiiy kommunikatsiya o'qituvchi bilan sinf va har bir o'quvchining, o'quvchilar bilan asar matnining, o'quvchilar bilan o'quvchining mashg'ulot davomida hatto, mashg'ulotdan keyingi o'zaro muloqotini tashkil etishdir. Badiiy-tadqiqiy, badiiy-konstruktiv, badiiy-tashkiliy vazifalarga doir qarashlar yakuni sifatida aytish mumkinki, mumtoz adabiyot namunalarini o'rganishga bag'ishlangan darslarning eng katta kamchiligi mashg'ulotlarda matn ustida yetarlicha ishlanmayotganligi, asar poetikasi va adibning mahorat olamiga kirib borilmayotganida namoyon bo'ladi. [Qodirov, 2019: 143] Demak, matn bilan ishlash jarayonida o'quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, mustaqil fikrlashga va o'z fikrini mustaqil bayon etishga o'rgatish bugungi kun o'qituvchilari oldiga qo'yilgan talablardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayeva Z., Djalilov K. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 220 b.
2. Qodirov B. Умумтаълим мактабларида мумтоз адабиёти намуналарини ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фанл. доктори (DSc) диссер. – Наманган: 2019. – 261б.
3. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik-majmua. I qism. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 184 b
4. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. Тошкент: Ўқитувчи, 1996. 72 б
5. <https://youtu.be/48uzEKDMPHo>

Maxfuza Abdialimova. Qozoqboy Yo’ldoshning badiiy asarga yondashish tamoyillari	233
Ra’no Xoliqova. 5–6-sinf o’quvchilarining kreativ fikrlash ko’nikmalarini o’quv topshiriqlari asosida rivojlantirish	238
Zaynab Kurbanova. Leksikologiya va frazeologiyaga oid mavzularni o’qitishda nutqni rivojlantirish usullari	242
Didora Ibragimova, Guljahon Muxtorova. O’quvchilarda o’qish savodxonligi va funksional savodxonlikni shakllantirish omillari	245
Dildora Ibragimova, Nilufar Ismatova. O’qish savodxonligi darslarida boshlang’ich sinf o’quvchilarining badiiy asarlarni sharhlash ko’nikmalarini shakllantirish	247
Bashorat Muminova. Ish qog’ozining asosiy matni ustida ishlash	249
Intizor Jumaniyazova. Fardlar tahlili orqali o’quvchilar tanqidiy tafakkurini rivojlantirish	252
Mirzabek Xolyorov. Abdulla Oripov – tabiat musavviri	257
Husniddin Qoraboyev. Boshlang’ich sinf o’qish savodxonligi darslaridan uy vazifalarini samarali tashkil etishning ahamiyati	259
Mahliyo Elboyeva. Maktab ta’limida bolalar adabiyoti namunalarini o’qitishda psixologik metodlardan foydalanish imkoniyatlari	261
Shoxista Mahmudova. Biografik talqinning ijodkor obrazini o’rganishdagi o’rni	266
Nargiza Ergasheva. Adabiyot darslarida loyiha ishi: Kitob treylari (“Book trailer”)	270
Nilufar Kadirova. O’quvchilar tanqidiy tafakkurining shakllanishida “aydos-konspekt” usulining o’rni	272
Maxmuda Yuldasheva. Adabiy ta’limda lirik, epik va dramatik asarlarni o’qitishda evristik yondashuvdan foydalanish amaliyoti	278
Ozoda Shukurboyeva. O’quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishning nazariy asoslari	285
Madina Abduqodirova. Kognitivizm va uning adabiy ta’limga tatbiqi	287
Nilufar Turg’unova. Faoliyat mazmuniga ko’ra o’quv loyihalarining turlari	294
Gulshoda Ruziyeva. Zamonaviy tilshunoslikning sotsioprogramatik xususiyatlari	296
Nodirbek Xasanboyev. Oliy adabiy ta’limda masofadan o’qitish muammo sifatida	298
Madina Axmadjanova. Ona tilini o’qitish muammolari (Turkiyada ona tili ta’limini o’qitish misolida)	301
Malika Axmadjanova. Til o’qitishda lug’at boyligini darajalash tamoyillari	304
Laylo Xursanova. Xorijiy tilini o’qitishda mediata’lim vositalaridan foydalanish holati	307
Shaxnoza To’rayeva. 5-sinf “Ona tili” darsligida grammatik savodxonlikni shakllantiruvchi o’quv topshiriqlari tahlili	310
Zebiniso Davronova. Ona tili darslarida yozma nutqni rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari	312

Bosishga 2024 yil 15 faprelda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100_{1/32} "EB Garamond" garniturası.
Ofset bosma usulida bosildi.
29.5 bosma toboq. Adadi 100 nusxa.
16/04-son buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

"Anorbooks" nashriyotida tayyorlandi va chop etildi.
Tasdiqnoma raqami №5566
Toshkent shahri, Qozirobod,
Kamolon darvoza, 2-uy.
(+99899) 335-66-00.